

Yangi yoʻnalish boʻyicha parvozlar: Namangan - Olmaota - Namangan

2022 26 Mart

2022-yil 30-martdan boshlab “Sharqiy” xab loyihasi doirasida “Uzbekistan Airways” AJ Namangan - Olmaota - Namangan yangi xalqaro yoʻnalishi boʻyicha muntazam aviaqatnovlarni yoʻlga qoʻyadi. Parvozlar haftada ikki marta chorshanba va shanba kunlari amalga oshiriladi.

Namangan - Olmaota yoʻnalishi boʻyicha aviachipta narxi 996 863 soʻmdan (bagajsiz) va 1 072 574 soʻmdan (bagaj bilan), Namangan - Olmaota - Namangan yoʻnalishi boʻyicha esa 1 669 213 soʻmdan (bagajsiz) va 1 795 398 soʻmdan (bagaj bilan) boshlanadi.

Narxlar 26.03.2022 holatiga koʻra amal qiladi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytidan, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilib olish mumkin.